

IX-XII ASRLAR IJTIMOIY TARAQQIYOTDA DINIY VA DUNYOVIIY BILIMLAR UYG'UNLIGI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667638>

Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o‘g‘li

Alfraganus universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasи v.b.dotsenti, (PhD)

Email: msherboboyev@bk.ru

ORCID: 0009-0007-4384-5686

Annotatsiya: Ushbu maqolada IX-XII asrlar ijtimoiy taraqqiyot masalasi va bu jarayonlarning asosida turuvchi ilmiy taraqqiyot va undagi o‘ziga xos talqini yoritilgan. Jumladan, ayni shu davrda diniy va dunyoviy bilimlar uyg’unligi masalasi maqolaning diqqat markazida turadi.

Kalit so‘zlar: Ilm, ilmiy taraqqiyot, ijtimoiy taraqqiyot, falsafiy taraqqiyot, bilish, ong, madaniyat, siyosat.

Аннотация: В статье рассматривается проблема общественного развития в IX-XII вв., а также научное развитие, лежащее в основе этих процессов, и их уникальная интерпретация. В частности, в статье рассматривается вопрос о гармонии религиозного и светского знания в этот период.

Ключевые слова: Наука, научный прогресс, социальный прогресс, философский прогресс, знание, сознание, культура, политика.

Abstract: This article discusses the issue of social development of the 9th-12th centuries and the scientific development underlying these processes and their specific interpretation. In particular, the issue of the harmony of religious and secular knowledge during this period is the focus of the article.

Keywords: Science, scientific progress, social progress, philosophical progress, knowledge, consciousness, culture, politics.

Kirish

Ilm-fan taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan IX-XII asrlar nafaqat sharq xalqlari tarixida balki, g‘arb falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ham salmoqli ta’sir qilgan. Fozila Sulaymonovaning “Sharq va g‘arb” nomli asarida sharq allomalarining ilmiy me’rosini g‘arb tamadduniga qay darajada ta’sir qilganligi aytil o‘tilgan. IX-XII asrlar ilmiy muhit davlat va jamiyat siyosatidagi yaratilgan vaziyat ilm-fan taraqqiyotida yangicha bosqich yasagan. Bu davrning o‘ziga xos jihatlaridan biri diniy va dunyoviy bilimlar uyg’unligida ekanligidan kelib chiqsak, ilmiy taraqqiyot yoki ijtimoiy taraqqiyot mo‘tadil yondashuvni talab qiladi.

Shu bilan birga dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan allomalarimizning ilmda komillik sari yetmoqlarida islom dinining ta’sirini ham alohida ta’kidlash zarur. Imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Dorimiy, imom Moturidiy Abu

Mu'in Nasafiy kabi allomalar bilan bir qatorda al -Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, al-Farg'oniy, Mahmud Zamashariy, al-Farobi [1.6-7] kabi o'z ilmi va tafakkuri bilan dunyoni lol qoldirgan allomalarimizning yetukligi zamirida islom dini va uning ilmga bergen e'tibori turganligi bizga ma'lum.

Bugun biz qurmoqchi bo'lgan jamiyat ham ayni shu buyuk shaxslar ishini davom ettirishni talab qiladi. Xususan, Prezidentimizning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi" [2] degan falsafiy fikrlarni anglagan holda, ushbu maqolada buyuk olimlar ijodini o'rganish, tahlil qilish asnosida inson kamolotida diniy va dunyoviy bilimlarning o'rni va ahamiyatini ochishga harakat qildik.

Asosiy qism

Musulmon diyorlaridagi olimlarning ilmiy merosini o'rganarkanmiz, jumladan, ta'lim sohasida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi mantiqsiz mantiqiy nisbatning shakllanishi yangi davrga kelib kuchayganini kuzatamiz. Islom dini paydo bo'lgan davrdan to shu bizning asrimizga qadar ta'limda bu diniy ta'lim, bu dunyoviy ta'lim deb katta chegara bilan ajratilmagan.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ilmlarni dunyoviy va diniyga ajratish, bu ikki ilmni bir-biridan ayro holda talqin qilish va ular o'rtasidagi go'yoki mantiqiy muvozanatni o'rnatishga bo'lgan intilishlar oqibati o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va shuurida o'zining salbiy natijalarini nomoyon qilib bormoqda. Bu holatni zamonamizning har bir aqli raso insoni anglab yetishi mumkin. Yuqorida aytilgan taraqqiy etgan jamiyatning asnosida ilmlar uyg'unligi masalasi turganligini inobatga olsak, bugun biz ham diniy va dunyoviy ta'lim uyg'unligini tiklashimiz zarur ekanligini ko'ramiz. Ayni shu masala mamlakatning ma'naviy taqdirini hal qiluvchi omillardan bir sanaladi. Diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim jarayonini amaliyatga tatbiq etish kechiktirib bo'lmas dolzarb muammolardan biri ekanligi jamiyatning aksar qismidagi muammolar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jamiyatdagi mavjud salbiy natijalar borligi orqali ta'lim-tarbiyada diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'un ravishda yosh avlodga yetkazish va bu borada ota-onalar va murabbiylar tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishi lozimligini his qilamiz.

Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik,adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik asosida yuz bergen. Islom halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikkni hamma narsadan ustun qo'ygan. "Ilm izlab Chinga bo'lsa-da, bor", "Sendan harakat – mendan barakat", "Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun" va ko'plab shu kabi hadislar, naqllar ajododlarimizning ijtimoiy mo'ljaliga aylangan edi. Bu esa qalb oydinlashuvi, hamda ijtimoiy taraqqiyotga asos bo'ldi. Siyosatda adolat, ilmda barqarorlik hamda ijtimoiy hayotda muvozanat bo'lsa, albatta inson kamolotiga erishamiz.

Sotsialistik tahlillar natijasi shuni ko'rsatadi, bugun ham biz rivojlangan deb biladigan yetakchi davlatlar taraqqiyotining asosiy sabablaridan biri bu islom qadriyatları sanalgan adolat, tinchlik, halollik, to'g'ri so'zlik, omonatdorlik kabi sanasak sanog'i ko'p bo'lgan qadriyatlar tashkil qilishi ko'ramiz. Bu esa ayni vaziyyatda ijtimoiy taraqqiyotda chin etiqod, sof islomning o'rni qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama va tahlil

Birinchi Uyg'onish davridagi madaniy yuksalish haqida gap borar ekan, ma'naviyatga, Uyg'onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd etib o'tish mumkin:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy masalalarga qiziqish;
- insonni koinotni Yaratguchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug'lash, unga ishonch bildirish, targ'ib-tashviq etish, ularni Yaratguchining eng ulug' va yuksak ijodi deb baholash, ma'rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish;
- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonning adolat, yuksalish, ma'naviyatga intilishiga yo'l ochish, imkoniyat yaratish. Aqlدا, axloqda, ma'naviyatda yetuk bo'lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do'stlik, o'zaro yordam, ko'maklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;
- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga o'zaro kelishuv, birlikka ega bo'lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta'minlaydi;

- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi - bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma'rifatli, ilmli, axloqli bo'lish, jamoani kelishib boshqara olishiga bog'liqdir. Ma'rifatli shoh, jamoa yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta'limotlarining muhim xislatidir.[1.28]

Yuqoridaq printsiplardan ko'rinish turibdiki, renassansning asoslari albatta inson va jamiyat ma'naviy kamolotini taqozo qiladi. Bu borada esa dinning qadriyatlar sistemasi orqali erishiladi. Aynan, shu qadriyatlar ichida ilm olish, ma'rifat hosil qilish eng yuqori o'rinda turadi. Dinda ilmga intilishga chaqiriq,

ilmsizlikdan qaytarish bor. Ilmga intilgan kishi eng yaxshi insondir. Ilmdan yuz o‘girish – insoniylikdan yuz o‘girish demak. Chunki ilm – insoniylik toji hisoblanadi. Inson ilm bilan sharaf topadi. Ilm odamni yuksaltirib, undan yodgorlik qodiradi.[5.204] Yusuf Xos Hojib ilm borasida “Qutadg‘u bilig” asarida shunday yozadi:

Yana bir hikmat bor: hazrati Odam –
Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.

Shu va shunga o‘xhash ilm va hikmatni ulug‘lab yozilgan asarlar natijasi o‘laroq arab sharqida diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligi asosida ijtimoiy taraqqiyot vujudga keldi. Bu holat IX-XII asrlarda vujudga kelgan Uyg‘onish davrini keltirib chiqardi. IX-XII-asrlar davomida Movarounnahr butun muslimmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o‘lka sifatida mashhur bo‘lib, bu erda qadimiy an‘analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an‘analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar-astronomiya, matematika, tibbiyat, kimyo, dorishunoslik, jug‘rofiya kabilalar rivoj topdi. Bu yerda mashhur hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda muhim asarlar vujudga keldi. Bu davr ma’naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko‘philiqi qomusiy bilimlarga ega bo‘lib, ilmlar bir-biridan ajralmasdan, uzviy bog‘liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham al-Forobi, ibn Sino, al-Beruniy, az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko‘p sohalarda ijod etib, o‘chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga matematika, astronomiya, tibbiyat, mantiq, tilshunoslik, tarix kabi ilmlar, madaniyat, ma’naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan din, islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko‘ramiz. Umuman, bu davrda islom muslimon Sharqida nafaqat din sifatida, balki yaxlit madaniyat, ma’naviyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U madaniyatning boshqa sohalari: ilm-fan, san’at, axloq, siyosat kabilarning rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Muslimon Sharqi, shuningdek, Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri madaniyati yuqorida ko‘rsatilgan o‘ziga xos xususiyatlarni ifodaladiki, bu xususiyatlar bu yerda madaniyat, ma’naviyatning so‘nggi rivojini belgilashda yetakchi rol o‘ynadi.

Xulosa

Umuman IX-XII asrlarda yuz bergen Uyg‘onish davrida Sharqda, xususan o‘rtta Osiyodan o‘z yurtlari shonu sharafini yuksaklarga ko‘tarib, betakror ilmiy kashfiyotlar, chinakam mo‘jizalar yaratgan mashhur iste’dod sohiblari yetishib chiqdiki, ular jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo‘shdilar hamda keyingi avlodlarga bitmas-tuganmas noyob boy meros qoldirdilar. Bugun biz ham ushbu merosdan unumli foydalanishimiz hamda shu orqali yosh avlodni Vatan ravnaqi uchun ruhan va ma‘nan komil inson etib tarbiyalash har bir ota –ona va ustoz murabbiyalarimiz burchiga aylanmog‘i lozim. Yosh avlod uchun sharqona – diniy va dunyoviy bilimlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan ta’lim-tarbiyani jahon andozalariga

mos, fan taraqqiyoti omilari orqali yetkazish bunda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda har bir sohada, shu jumladan ta’lim sohasida islohotlar olib borilayotgani, o‘sib kelayotgan yosh avlodni kelajakda inson degan sharaflı nomga munosib ravishda tarbiya va ta’lim olib kamol topishlariga mamlakatimizning oqil insonlari jon kuydirayotgani va bu borada ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan amaliy ishdar va tadbirlar tahsinga sazovordir. Ushbu jarayonda bugungi o‘zbek jamiyatining mutlaq ko‘pchiligi insonning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirib, axloqini tarbiyalashdagi dinning yuksak axloqini, inson ruhiyatida insoniy fazilatlarni yaratuvchanligini qo‘llab - quvvatlamoqda. Milliy va diniy qadriyatlarni anglatish yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilishi bugungi kunda hech kimga sir emas. Buning uchun yosh avlodning ta’lim va tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish nafaqat hukumatimizning yoki maktablarning vazifasi, balki har bir ota-onaning ham muqaddas burchlaridan hisoblanadi. Albatta, yoshlарimizni ilmiy saviyalari, kasbu hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham o‘sib borishi zarur. Shu jumladan, yoshlарimizning ta’lim- tarbiyasini asriy va azaliy sharqona qadriyatlarimiz va mamlakatimizning milliy mafkurasi bilan uyg‘unlashtirishimiz, aynan mana shu o‘rinda yoshlarga diniy-axloqiy bilimlarni ta’lim berish bugunning kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Nazarov O.R. Musulmon renessansi davrida O‘rtta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi – Toshkent: “LESSON PRESS”, 2023. 219 bet.
2. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
3. Абдухалимов Б. “Байт ал-Хикма” ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). Т.:Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004. – 236 б.
4. Хайруллаев М.М.Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. Т.: Фан, 1994 22.
5. Malik, Toxir. “Odamiylik mulki” – “Husnu xulq” (Axloq kitobi). – Т.: “Sharq”, 2018. – 936 b.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги Халқаро конференциянинг очилиш маросимидағи нутқини умумтаълим муассасаларида ўрганиш юзасидан методик тавсия ва дастур. Т., 2014. <http://btr2014.zn.uz/2015/01/08>